

**O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA SAMARQAND SHAHRIDA
JOYLASHGAN TARIXIY OBIDALARNING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI**

Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti

G'anijova Dilafruz Noiljon qizi

ganijonovadilafruz@gmail.com

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va san'at fakulteti Tarix
yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Olimova Zulfiyaxon Ibrohimjon qizi

zulfiyaolimova98@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda turizmni rivojlantirishda Samarqandda joylashgan tarixiy yodgorliklarimizning tutgan o'rni va ahamiyati haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Samarqandda joylashgan tarixiy obidalar o'zining go'zalligi va boy tarixga egaligi bilan butun dunyo olimlari va sayyohlarini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Kalit so'zlar: turizm sohasi, chet ellik sayyohlar, milliy turizm, YUNESCO, Registon ansambli, Amir Temur, Tumanova, Ulug'bek madrasasi, Yalangto'sh Bahodir, madrasa, Qavmiddin Sheroziy, hujralar, darsxonlar, dorilfunun, Ashtarxoniyalar, Tillakori, Sherdor, xonaqoh Mirzoyi, inshoot.

**РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ПАМЯТНИКОВ, РАСПОЛОЖЕННЫХ В
ГОРОДЕ САМАРКАНД, В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ**

Аннотация: В данной статье представлена подробная информация о роли и значении наших исторических памятников, расположенных в Самарканде, в развитии туризма в нашей стране. Исторические памятники, расположенные в Самарканде, привлекают ученых и туристов со всего мира своей красотой и богатой историей.

Ключевые слова: туристический сектор, иностранные туристы, национальный туризм, ЮНЕСКО, ансамбль Регистан, Амир Темур, Туманова, медресе Улугбека, Ялангтош Бахадир, медресе, Кавмиддин Шерози, комнаты, дарсханы, дорилфунун, Аштарханис, Тиллакори, Шердар, квартира Мирзои, здание.

**THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF HISTORICAL MONUMENTS LOCATED IN
THE CITY OF SAMARKAND IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM IN
UZBEKISTAN**

Abstract: This article provides detailed information about the role and importance of our historical monuments located in Samarkand in the development of tourism in our country. Historical monuments located in Samarkand have been attracting scientists and tourists from all over the world with their beauty and rich history.

Keywords: tourism industry, foreign tourists, national tourism, UNESCO, Registan ensemble, Amir Temur, Tumanova, Ulugbek madrasa, Yalangtosh Bahodir, madrasa, Qavmiddin Sheroziy, hujras, darskhons, dorilfunun, Ashtarkhanis, Tillakori, Sherdor, khanaqoh Mirzoyi, structure.

Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonda ijtimoiy hayotning barcha sohalarida keng ko'lamlil ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat iqtisodiyotini yana ham rivojlantirish va o'zbek xalqining boy madaniy meroslarini jahon hamjamiyatiga namoyon qilishdan iborat. Turizm O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi va

rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda turizmning boshqa sohalari qatori mamlakatda tarixiy turizmni rivojlantirish va kegaytirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirg kunga kelib dunyo aholisi o'rtasida tarixiy madaniy meroslarni o'rganishga qiziquvchilar soni ko'payan. Ko'plab chet ellik olim va mutaxassislar yurtimizda yashab o'tgan mashhur shaxslarning hayotiga qiziqib, ular yashab o'tgan joylarni ko'rishga ishtiyoqi oshmoqda.

Hozirg kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri bu Milliy Turizmdir, dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, - O'zbekiston turizm sohasida katta salohiyatga ega davlatdir. Mamlakatimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESCO ro'yxatiga kiritilgan. Shu bilan birga, mamlakatimizning o'ziga xos tabiati, go'zal dam olish zonolari imkoniyatlaridan foydalangan holda yangi sayyohlik yo'nalishlarini ochish mumkin.¹ Bugungi globallashuv sharoitida O'zbekistonda xalqaro turizm sohasini rivojlantirish uchun har tomonlama qulay imkoniyatlar va barcha zarur shart-sharoitlar yuzaga kelganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashuvi mamlakatning iqtisodiyotida muhim muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bizning yurtimiz xalqaro turizm sohasidagi imkoniyatlarining kattaligi bilan O'rta Osiyodagi boshqa mamlakatlarga qaraganda ajralib turadi. O'zbekistonning geografik o'rningining nihoyatda qulayligi, tabiiy iqlim sharoitiga ega ekanligi, insoniyat madaniy taraqqiyotida ham katta ahamiyatga ega. O'zbekiston betakror, ajoyib tarixiy arxitektura yodgorliklari, shirin-shakar mevalari, xilma-xil milliy taomlari, ajoyib milliy an'analari, urf-odatariga ega bo'lgan mehmondo'st xalqiga ega. Bularning barchasi chet ellik turistlar e'tiborini o'ziga tortadi va ularni O'zbekistonga yana qaytib kelishiga undaydi.

O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda tarixiy yodgorliklarimizning o'rni beqiyosdir. Misol tariqasida Samarqand shahrida joylashgan tarixiy yodgorliklarni olaylik. U yerdagi tarixiy obidalar bir necha yillardan buyon chet ellik turistlarni o'ziga jalb qilib kelmoqda. Bu esa albatta barchamiz uchun quvonarli. Samarqand madaniy meros yodgorliklariga boyligi bilan boshqa shaharlardan mutlaqo ajralib turadi. Bir necha asrlar davomida mazkur shahar Buyuk Ipak yo'lining asosiy markazi bo'lib kelmoqda. XXI asrning boshida YUNESCO ning Umumjahon madaniy meros yodgorliklari ro'yxatiga "Samarqand – madaniyatlar chorrahasi" nomi bilan kiritildi. Bu kabi yuksak e'tiroflar Samarqand shahrini dunyo hamjamiyati tomonidan ham yuqori baholanganligidan dalolat beradi. Shaharni ziyorat qilish davomida siz bu yerda joylashgan tarixiy obidalarning sonidan hayratga tushasi, shahardagi barcha obidalarni ziyorat qilish orqali o'tmish tariximiz haqida batafsil ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. Hozir ana shunday dunyoga mashhur bo'lgan Samarqandning me'moriy yodgorliklarini ko'rib chiqamiz.

Registon ansambli

Registon maydoni yer yuzining sayqali deya e'tirof etilgan. Amir Temur hukmronlik qilgan davrda u birlashtirgan 27 ta davlatning poytaxti hisoblangan mashhur Samarqandning o'ziga xos bo'lgan ko'zgusi bo'lgan. "Registon" so'zining ma'nosi fors tilidan olingan bo'lib, "qumli joy" degan ma'noni bildiradi. O'sha davrlarda u yerdan janubi – sharqdan, shimoli-g'arbga tomon katta ariq oqib o'tgan. Oradan yillar o'tib ariq qurib qolgan. So'ngra uning o'rnida qumloq joylar paydo bo'lgan. Ana shuning uchun nu yerlar "Registon" nomi bilan atalgan. Bir necha asrlar davomida Registon maydoni o'zidagi inshootlarni uch marotaba o'zgartirdi. Avvalo Amir Temurning aqlli xotinlaridan biri hisoblangan Tumanova tomonidan bu yerda hashamatli, bosh kiyimlar sotiladigan usti yopiq gumbazli tim quriladi. Mirzo

¹ Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. 2018.

Ulug'bek hukmronlik qilgan davrda maydonda qaytadan rejalashtirish ishlari amalga oshiriladi. Bu joylar vaqf mulklariga topshirilgandan keyin bozor timlari boshqa joyga ko'chiriladi. Maydonning g'arbiy qismida eng dastlabki bino hisoblangan Ulug'bek madrasasi qurildi. Registon maydoni hozirgi kungacha shaharsozlik san'atining noyob durdonalarida biri hisoblanadi. Ana shu noyob durdonalardan faqatgina Ulug'bek madrasasi bizgacha yetib kelgan. Ansambldagi hozirgi binolar esa ushbu majmuani oldingi holiga qaytarish maqsadida XVII asrda shaar hokimi Yalangto'sh Bahodir tomonidan qurilgan.

Ulug'bek madrasasi

Registon maydonidagi ushbu me'moriy majmuaning tarkib topishi 1417-yilda yosh olim va hukmdor Mirzo Ulug'bek nomi bilan bog'liq. Uning farmoniga binoan madrasaning qurilish ishlari boshlanadi va 1417-1420-yillarda qurib bitkaziladi. Uning sathi 81x56 metr. Ushbu bino loyihasining muallifi o'z zamonasining mashhur olimi Qavmiddin Sheroziy hisoblanadi. Madrasa ikki qavatli bo'lib, 55 ta hujra va to'rt burchagida katta darsxonalar va ayvonlardan iborat bo'lgan. Maxsus o'qish uchun belgilangan hujralarda 2-3 tolibi ilmlar o'qigan va yashagan. Har bir xona uch vazifani bajargan (o'qish, yashash va alohida qismida kerakli narsalarni saqlash). Darsxonalarda alohida guruhlar uchun fan mashg'ulotlarida o'tkazilgan. Ayvonlar yozgi darsxona vazifasini bajargan. G'arbdagi ikki darsxona o'rtasida masjid xonaqohi joylashgan. Uning ikkita darsxona hamda hovli bilan bog'lovchi eshiklari bo'lgan.² Ulug'bek tomonidan qurilgan ushbu madrasa o'z davrining mashhur, o'qish uchun barcha sharshoroitlarga ega mukammal oliy o'quv yurti hisoblangan. Sharqdagi birinchi dorilfunun hamda keng imkoniyatlarga ega ilmiy muassasa sifatida ham katta shuhrat qozongan. Butun dunyoda Ulug'bek akademiyasi nomi bilan ma'lum va mashhur bo'lgan. Madrasada ta'lim 3 bosqichdan iborat bo'lgan:

- ❖ Birinchi bosqich: "ando" yoki "past qadam" boshlang'ich ta'lim bo'limi.
- ❖ Ikkinchi bosqich: "avsat" yoki "miyonda" o'rta ta'lim.
- ❖ Uchinchi bosqich: "a'lo" yoki "peshqadam" oliy bo'lim.

Iqtidorli tolibi ilmlar bu bo'limlarning har birida to'rt-besh yil davomida oqishardi. Natijada, madrasada tahsil olib, uning o'quv dasturi bo'yicha asosiy fanlarni o'zlashtirgan va imtixon saboqlarida o'zlarining bilimni namoyish qila olgan tolibi ilmlarga "Sanad-shahodatnoma" yozib berilgan. Madrasada o'qish va o'qitish mutlaqo bepul bo'lib, barcha harajatlar vaqfnoma orqali ta'minlangan.

Sherdor madrasasi

Samarqandda Ashtarxoniyalar sulolasi hukmronligi davrida qurilish ishlari yanada rivojlandi. Yalangto'sh Bahodirning tashabbusi va farmoni bilan Registon maydonidagi vayronaga aylangan Mirzo Ulug'bek madrasasida ta'mirlash ishlarini olib borish va butunlay buzilib ketgan Miroz Ulug'bek qomonidan qurdirilgan xonaqoh Mirzoyi haammomi va karvon saroylari o'rnida 2 ta hashamatli inshoot, Sherdor madrasasi (1619-1636) va Tillakori madrasa masjidi (1646-1660) bunyod etilgan. Madrasaning sathi 70x57 metr, ya'ni to'rt burchak shakli bo'lib, hovlisi ikki qavatli hujralar bilan o'ralgan. Ularning soni 52 ta, hovlining burchaklarida darsxonalar joylashgan, lekin bu yerda masjid mavjud emas. Ulkan peshtoq ravog'I tepasidagi timpan diqqatga sazovordir. Qizg'ish zarhal she'r, oq ohuni quvib ketmoqda. Quyosh bodomqovoq, kiyik ko'zli doira shaklida tasvirlangan. Uning yuzi esa zarhal yog'du bilan hoshiylangan. Butun kompozitsiyasizangori asosda bo'lib, firuza va zarhal bo'yoqlar bilan tasvirlangan, hamda bir-biriga chirmashib ketgan novdalar, ochilib yotgan oq gullardan iborat. Ana shu ajoyib tasvir tufayli u "Sherdor" nomini olgan, baxtiyor zamonga ishoradir.³

² N.Y.Turdiyeva, O.Y.Yusupov, F.J.Bakiyev. Samarqand tarixiy obidalari. O'quv qo'llanma.

³ N.Y.Turdiyeva, O.Y.Yusupov, F.J.Bakiyev. Samarqand tarixiy obidalari. O'quv qo'llanma.

Tillakori marsasasi

Samarqand hokimi Yalangto'sh Bahodir Sherdor madrasasini qurdirgan so'ng oradan o'n yil o'tgandan so'ng, Ulug'bek tomonidan qurilgan muhtasham karvonsaroyini tiklash imkoniyati bo'lmaganligi sababli, uning poydevori ustidan yangi madrasa-masjir qurirdi. U keyinchalik "Tillakori" madrasasi deb atalgan. Tillakorining qurilishi bilan Registonning ajoyib ko'rinishdagi bir ansambli mukammal bir shaklga keldi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng ushbu yodgorliklarni ta'mirlashga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov tashabbusi va Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi YUNESCO qarori bilan, buyuk munajjim, qomusiy olim va davlat arbobi Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi (1994-y) va 1996-yilda buyuk davlat arbobi va mohir sarkarda Amir Temurning 600 yilligi yubileyleri munosabati bilan Ulug'bek madrasasining ikkinchi qavati qaytadan tiklanib, madrasa qadimiy davrdagi hoaltiga keltirildi. Sherdor va Tillakori madrasalarida mislo ko'rilmagan darajada ta'mirlash va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Bu kabi tarixiy obidalaridan yana yuzlab tarixiy yodgorliklarni sanab o'tishimiz mumkn. Bu yerlarga har yili minglab chet ellik sayyohlar tashrif buyuradi va bizning boy tariximiz haqida ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, so'nggi yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga tarixiy turizm ham iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylanmoqda. O'zbekistonning turizm salohiyati jahon miqyosida targ'ib qilish va rivojlantirish yuzasidan keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilmoqda. Turizm sohasi vakillari ichki va xorijiy sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashga doir bir qancha ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda biz bor kuchimizni ichki va mahalliy turizm hamda tarixiy turizmni rivojlantirishga katta ahamiyat berishimiz zarur. Buning uchun esa barchamiz birdamlikda harakat qilishimiz zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. N.Y.Turdiyeva, O.Y.Yusupov, F.J.Bakiyev. Samarqand tarixiy obidaları. O'quv qo'llanma.
2. Shavkat Miromonovich Mirziyoyev. 2018.
3. Z.O.Rahimov, Turizm sohasida mehmonxonalar xo'jaligini rivojlantirishning ilmiy-iqtisodiy muammolari.// Monografiya. – Samarqand: SamISI, 2021. 212-bet.
4. Z.O.Rahimov, N.E.Ibadullayev, R.Xaitboyev. Turoperating.//Darslik.- Toshkent: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2021-yil.
5. <https://arxiv.uz> sayti.
6. <https://www.ziyo.uz> kutubxonasi.